

**“NKMK” AJ huzuridagi Jamoatchilik kengashi tomonidan
2025-yilda amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida
H I S O B O T I**

Muhtaram Yurtboshimiz rahbarligida barcha sohalarda keng ko‘lamli islohotlar davom etmoqda. Birgina, keyingi yillarda Yangi O‘zbekistonda axborot va ochiqlik siyosati yo‘nalishida olib borilgan ishlar bunga yaqqol misoldir. Bu boradagi yutuqlar bugun xalqaro hamjamiyat tomonidan yuksak baholanmoqda.

Jumladan, qabul qilingan qator huquqiy hujjatlar xalqimizning axborotni erkin izlash va olishga doir konstitutsiyaviy huquqlarini ta‘minlash, davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi, shaffofligi va hisobdorligini oshirish, ular faoliyatini baholashga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-154-son Farmoni qabul qilingani Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ faoliyatining ochiqligi, shaffofligi va hisobdorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Farmon ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJning 2023-yil 8-maydagi “Jamoatchilik kengashini tuzish to‘g‘risida”gi 233-sonli buyrug‘i qabul qilinib, 15 nafar a‘zoldan Kengash tarkibi, Nizomi, Korrupsiyaga qarshi kurashish hamda Ochiqlikni ta‘minlash bo‘yicha ekspert guruhlari tarkibi tasdiqlandi.

E’tiborli jihat, Jamoatchilik kengashi a‘zolarining yarmidan ko‘pi nodavlat-notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati instituti vakillari ekani ishni samarali tashkil etishga xizmat qilmoqda.

Jamoatchilik kengashining 10 ta banddan iborat 2025-yilga mo‘ljallangan ish rejasi ishlab chiqilib, Kengash o‘z faoliyatini unga muvofiq amalga oshirishga erishdi. Jumladan, hisobot yilida 2 marotaba kengashning kengaytirilgan, 7 marotaba kengash faoliyatining asosiy vazifalari yuzasidan yig‘ilishlari tashkil etildi.

Komplyans xizmati tomonidan NKMK ishchi-xodimlari ishtirokida bodinmalarda korrupsiya va uning salbiy oqibatlari, unga qarshi kurashish, kelib chiqishi mumkin bo‘lgan xatarlarning oldini olish bo‘yicha yil davomida 21 marotaba targ‘ibot-tushuntirish ishlari olib borildi.

Shuningdek, hisobot davrida bosh direktorning birinchi o‘rinbosari Ye.Antonov, Gender tenglik va inklyuzivlik xizmat bosh mutaxassisi N.Amonova, NKMK yoshlar yetakchilari Kengashi raisi T.Qalandarov, Atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘limi boshlig‘i X.Baqoyevlarning jamoatchilik eshituvlari o‘tkazildi.

Hisobot davrida Jamoatchilik kengashining Geologiya-qidiruv ekspeditsiyasi, Markaziy laboratoriya, NKMK boshqarmasi, Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish boshqarmasi, Markaziy kon boshqarmasida yig‘ilishlari tashkil etildi va jamoatchilik fikrini o‘rganish maqsadida ishtirokchilar o‘rtasida so‘rovnomalar o‘tkazildi.

Bundan tashqari, “NKMK” AJ boshqarmasi, “Qizilqum”, Markaziy va Janubiy kon boshqarmalari va boshqa bo‘linmalarda ichki idoraviy va qarorlarda ishchi-xodimlari manfaatlari va fikri hisobga olingani, jamoada sog‘lom ishchanlik muhiti, yuksak huquqiy madaniyat va ahloqiylikni ta’minlash, ishchi-xodimlar o‘rtasida Vatanga sadoqat ruhi va qonunlarga bo‘lgan hurmatni oshirishga qaratilgan nazorat, targ‘ibot tadbirlari o‘tkazildi.

Shu bilan birga, 2026-yilning yanvar oyida Jamoatchilik kengashining joriy yilgi rejasi muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilish o‘tkazilib, aniq vazifalar belgilab olindi va ayni paytda shu asosida ishlar olib borilmoqda.

**“NKMK” AJ huzuridagi Jamoatchilik kengashi,
2026-yil 5-yanvar.**